

**ASALARICHILIK TARMOG'INI JOYLASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA
UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI**

Kalandarov Dilmurod Dusmuradovich

mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asalarichilik tarmog'ini joylashtirishning tabiiy-iqtisodiy omillari va xususiyatlari, tarmoqning samaradorligini oshirish yo'llari haqida tadqiqot natijalari keltirilgan.*

Kirish so'zlar: *Asalarichilik, tarmoq, omil, joylashtirish, resurs, yer, suv, renta.*

KIRISH

Iqtisodiy islohatlar sharoitida yer, suv, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga bo'lgan talab ancha oshdi, qishloq xo'jaligining ixtisosligi va joylashtirilish talablari o'zgarimoqda. Barqaror yerdan foydalanish va uni xususiyatlari muammosining murakkabligi, qishloq xo'jaligini qayta tashkil etish, xalq xo'jaligi tarmoqlari shakllarini murakkablashishi va o'zaro bog'liqligi yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlashga alohida yondashuvni ko'zda tutadi. Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining darajasi va miqyosini o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi sharoitida yer-suv resurslaridan foydalanishning reja-bashoratlarini ishlab chiqish ularni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini anchagina maqbul variantini qidirish kafolati hisoblanadi. Umuman mamlakat iqtisodini hamda, qisman yer resurslaridan foydalanishni boshqarishda rejalashtirish yordamida ta'minlanadigan tarmoq va hududiy rivojlanishni to'g'ri, proporsional qo'shilishi anchagina murakkab muammo hisoblanadi [1].

Rejalashtirish moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanishga, qishloq xo'jaligining murakkab masalalarini hal qilishga, yer resurslaridan ham tarmoq, ham hududiy jihatlarida foydalanish muammolarini hal qilishga, imkon qadar yuqori ta'sirni o'tkazishga qaratilgan. Mamlakat iqtisodiyotini, uni ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlanishi hamda ularni ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishga bo'lgan talablari iqtisodiyot tarmoqlarida yer resurslarini qayta taqsimlashni yoki taqsimlash va foydalanishni takomilashtirishni talab qiladi. Iqtisodiyot tarmoqlarini, shuningdek jamiyat faoliyatining boshqa sohalarini (ijtimoiy, rekreatsion va boshqalar) yer resurslariga bo'lgan talabni zahira yerlari hisobiga ta'minlash maqsadga muvofiqdir [2]. Ammo bunga har doim ham erishib bo'lmaydi, ayniqsa shahar atrof mintaqalarida bu murakkabdir. Ko'pincha aholi punktlari maydonlarining o'sishi qishloq xo'jalik yerlaridan, shu jumladan yuqori qimmatli sug'oriladigan maydonlardan ularga yer ajratish hisobiga ta'minlanadi [3]. Yer resurslarini tarmoqlararo taqsimlash (yoki qayta taqsimlash) masalalarini hal qilishda yerni ishlab chiqarish vositasi hamda kenglik operatsion asos sifatidagi xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Yakuniy natijada yer resurslarini oqilona tarmoqlararo taqsimoti mamlakat yagona yer fondining yer toifalari tarkibida yoritiladi. Yer tuzishining u yoki bu regional

xususiyatlari mavjud bo'lishiga qaramasdan masalalarni hal qilishning barcha holatlarida yer tuzish jarayonini amalga oshirishning umumiy tamoyillariga amal qilish zarur [4].

Asalarichilik tarmog'ining rivojlanishi va joylashtirilishi munosabatlari tabiat va iqtisodiyot qonunlarining talablari, sabab-oqibat bog'liqligi va qoidalari bilan o'zaro ta'sirda amaliyotda sodir bo'ladi. Tabiiy resurslarning (yer, suv, o'rmon, entomofil o'simliklar, iqlim va hokoza) holati va ulardan foydalanish darajasi asalarichilik tarmog'ini joylashtirish jarayoniga va uning iqtisodiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, asalarichilikning renta hosil qiluvchi tarmoqlardan biri bo'lganligi sababli, renta hosil qiluvchi omillar asalarichilikni joylashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosini tashkil qiladi. Asalarichilikda differentsial renta hosil bo'lishining omillari mavjud bo'lib, ular unumdorligi va joylashuvi har xil bo'lgan yerlarda ishlab chiqarishning turli darajalari va natijalarining shakllanishi bilan bog'liq.

I.V. Sergeev renta hosil qiluvchi omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratadi. Misol uchun, ichki omillarga rahbarning bozor sharoitida korxonani boshqarish qobiliyati; korxonaning innovasion siyosati; ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish; mahsulot sifati va raqobatdoshligi; xarajatlar va narxlarni boshqarish; amortizatsiya va investisiya siyosati kabilarni kiritisa, tashqi omillar qatoriga ichki va jahon bozori kon'yunkturasi o'zgarishi, siyosiy vaziyatning o'zgarishi, inflyatsiya jarayonlari, davlat faoliyati bilan bog'liq omillarni kiritgan [5].

Bizningcha, yuqoridagilardan farqli ravishda renta hosil qiluvchi omillarni to'rt guruhga ajratish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga "yer va suv resurslari, ularning sifati, mehnat va uning unumdorligi, texnik va texnologik omillar", ikkinchi guruhga "ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillar", uchinchisiga "qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish imkoniyatlari va shart-sharoitlari", to'rtinchisiga "davlat tomonidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rag'batlantirish, soliq, kredit, narx va moliya siyosati"ni kiritish maqsadga muvofiq. Bulardan tashqari, asal beruvchi tabiiy o'simliklarning zaxiralari, hududdagi tabiiy-iqlim sharoitlari, asalarilar oilalari uchun foydali yoki zararli organizmlarning mavjudligi kabi omillar iqlimning zonal xususiyatlarini, asalarichilik yo'nalishini va xo'jaliklarning ixtisoslashuvini to'g'ri tanlash uchun entomofil ekinlarni joylashtirishni hisobga olishni taqozo etadi. Yumshoq iqlimi (Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari) va erta bahori bo'lgan hududlarda (Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari) asalarichilikni entomofil ekinlarni changlatish bilan birgalikda "ona (Malika)" asalarilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish maqsadga muvofiq. Boshqa hududlarda bozorbop asalni ishlab chiqarish, propolis, ari zahari va boshqa asalarichilik mahsulotlarini olishni ham o'z ichiga olishi lozim.

Asalarichilikda renta hosil qiluvchi omillar tasnifini ishlab chiqarish, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning yagona tizimi:

- Tashkiliy-iqtisodiy: ishlab chiqarishning joylashuvi, ixtisoslashuvi va kontsentratsiyasi darajasi, asalarini saqlash usuli, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash, transport va tranzaksiya xarajatlari darajasi; Ishlab chiqarish:

- biologik: asalarining zoti va yosh tarkibi, ona (Malika)ning yoshi va mahsuldorligi;

- texnik-texnologik: ozuqa bilan ta'minlanganlik, iqlimning mavsumlari, boqish uslubi, asalni o'z vaqtida olish, asal resurslarining mavjudligi, ularning holati;

- Tashkiliy-iqtisodiy: ishlab chiqarishning joylashuvi, ixtisoslashuvi va kontsentrasiyasi darajasi, asalarini saqlash usuli, mehnatni tashkil etish va unga haq to'lash, transport va tranzaksiya xarajatlari darajasi;

- Ijtimoiy: asalarichilikdagi an'ana va tajribalar, oilaviy ko'nikmalar, mutaxassislar tayyorlash, xodimlar malakasi, mehnat va dam olish rejimi, mehnat intizomi, asalarichilik medisinasi va epidemiologiyasi, aholining asal iste'moli;

- Ekologik: iqlimning o'zgarishi, quyoshning ekspozitsiyasi, shamolning esishi, suv manbalarining, tuproqning, havo muhitining zaharli moddalar bilan ifloslanishi.

O'z navbatida, ishlab chiqarish omillarini biologik hamda texnik va texnologik omillarga bo'lish mumkin, ular birgalikda asalarichilikda ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni tavsiflaydi: asalarilar zoti, yosh tarkibi, "ona (Malika)" ning yoshi va mahsuldorligi, ozuqa ta'minoti, iqlim mavsumlari, boqish uslubi, asal olish vaqtini optimallashtirish, asal resurslari (entomofil o'simliklar)ning mavjudligi va boshqalar.


Tashkiliy-iqtisodiy omillar asosan asalarichilikdagi jami xarajatlar miqdoriga, qo'shimcha foydaning shakllanishiga ta'sir qiladi. Ishlab chiqarishning joylashuvi, ixtisoslashuvi va kontsentrasiyasi darajasi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu texnologiya va olingan mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Asalarini saqlash usuli, mehnatni tashkil etish, transport va transaksiya xarajatlari darajasi, qo'l mehnati ulushi asalarichilikning raqobatdagi ustunligini belgilashga ta'sir qiladigan omillardir. Bizningcha, asal va asal mahsulotlari ishlab chiqarishi ixtisoslashuvini tarmoq, hudud ichidagi va xo'jalik ichidagi shakllarga ajratish va ular tarkibida quyidagi yo'nalishlar: asal-tovar, changlatish-asal, changlatish, naslchilik, aralash (kompleks) bo'lishi maqsadga muvofiq.

Tarmoq, hudud ichidagi ixtisoslashuv tabiiy va iqlim sharoitlariga eng mos keladigan mahsulotlarning ayrim turlarini olishni ta'minlaydi, ya'ni asalarichilik asalari paketlari, gul gulchanglari, ari zahari, propolis, shohona jele ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lishi mumkin. Fermer xo'jaligida ixtisoslashuv alohida bo'limlar o'rtasidagi mehnat taqsimotiga asoslanadi: asalari o'ramlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadigan asalarichilikda "ona (Malika)" o'stirish uchun asalarizor ajratiladi; changlatish yo'nalishidagi asalarichilikda-gulchang ishlab chiqarish uchun. Asal ishlab chiqarish, asal bazasi (resursi) yo'qligi sababli asalarilarni saqlash va parvarish qilish xarajatlarini qoplay olmaydigan hududlarda asalarilardan kompleks tarzda foydalanish tavsiya etiladi, bu nafaqat asalni, balki gulchanglar, propolis, ari zahari, bachadon suti va boshqa tegishli asalarichilik mahsulotlarini ham olishni o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gulchanglar, propolis, ari zaharini asalarilar koloniyalaridan asal oqimini kamaytirmasdan olinishi mumkin [6].

Yuqori natijalarga erishish ko'p jihatdan ishlab chiqarish kontsentrasiyasiga ham bog'liq, ya'ni ishlab chiqarish yo'nalishi, asalarilarni saqlash uslubi, inventar va ish jarayonlarini mexanizasiyalash vositalarining mavjudligi, ishlab chiqarish texnologiyasini belgilaydigan asalarichilik koloniyalarining soni kabi omillarga bog'liqdir. Ishlab chiqarish kontsentrasiyasining asosiy ta'siri korxonaning ma'muriy va boshqaruv apparatini tashkil etish, saqlash xarajatlarining ishlab chiqarish hajmiga nisbatan kamroq darajada o'sishi va shu bilan birga ishlab chiqarishda tegishli moddalar ulushini kamaytirishi bilan bog'liq transformasiya xarajatlarini kamaytirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish bilan baholanadi. Ishlab chiqarish kontsentrasiyasidan kelib chiqadigan yana bir ta'sir - tranzaktsiya xarajatlarini kamaytirishdir. Bundan tashqari, yirik asalarichilik xo'jaliklari kichik asalarichilikka nisbatan quyidagi 1-shaklda sanab o'tilgan afzalliklarga ega bo'lganligi sababli qo'shimcha daromad oshadi.

Asalari xo'jaligini kattalashtirish asalari oilalarini o'zi hisobidan ko'paytirish yoki asalarilarni sotib olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday holda, hududdagi asalarichilikning veterinariya holatini hisobga olish kerak, chunki kasallangan asalari oilalari hududga olib kirilayotganda kasalliklar tez tarqaladi. Ishlab chiqarishning kontsentrasiyasi va hajmi, ya'ni asalarilar soni va ulardagi asalari oilalari soni mehnatni tashkil etish shakllarini (individual, jamoa) belgilaydi. Bitta asalarichilik ishchisi uchun yuk 200 dan 250 ari koloniyalariga to'g'ri keladi. Aksariyat asalarichilik oilaviy xo'jalik sifatida tashkil etilgan: asosiy ishni (60-70%) bir kishi bajaradi va unga oila a'zolari yordam beradi [7].



1-shakl. Yirik asalarichilik xo'jaliklari afzalliklari

Asalarichilikda mehnatni rag'batlantirish muammolari qishloq xo'jaligiga xos bo'lib, u bugungi kunda samarasiz bo'lib, ishchilarning ish haqining past darajasi va ularning mehnat faoliyati yakuniy natijalaridan manfaatdor emasligiga olib kelmoqda. Bizning fikrimizcha, asalarichilikda ish haqini tashkil etish yanada unumli ishlashga undamayapti, akkord asosidagi bonus tizimi faqat shartli asal mahsulotiga aylantirish omillaridan foydalanishga asoslanadi, bu esa ish haqi fondini shakllantirishning asosiy bozor tamoyillarini, ya'ni mehnatning yakuniy natijalariga ko'ra moddiy rag'batlantirish, olingan daromadlar bilan taqqoslash kabilarni buzadi. Ish haqini

belgilash me'yorlarini asalarichilik mahsulotlari bozoridagi narx kon'yunkturasi o'zgarishi sababli qayta ko'rib chiqish kerak.

Asalarichilikda kooperasiyaning turli shakllarini (marketing, xizmat ko'rsatish, kredit, ishlab chiqarish va boshqalar) keng yoyish va rivojlantirish asalarichilik samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. N.I.Glotovanning fikricha, zamonaviy sharoitda kooperatsiya harakatining faollashishi qishloq xo'jaligi tarmoqlarini, jumladan, asalarichilikni rivojlantirishning samarali omili hisoblanadi [8].

Xususan, marketing kooperatsiyasi asalarichilik uchun eng dolzarb hisoblanadi, chunki undan mahsulotlarni sotish, shuningdek, saqlash, saralash, qadoqlash, tashish va hokazolarda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, savdo korxonalari yirik tovar ishlab chiqaruvchilar bilan ishlashni afzal ko'radilar, bu esa ishlab chiqarish tarkibining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, asalarichilik uchun unchalik xos emas. Shunga qaramasdan, bizningcha, asalarichilikni yanada barqaror rivojlantirish uchun kooperatsiya munosabatlari katta imkoniyatlar ochadi. Fitobarlar, asalari chaqishi bilan davolash va asal massaji yordamida laboratoriyalar tashkil etish, integrasiyalashgan tuzilmalar, shu jumladan qayta ishlash korxonasi uchun xom ashyo yetkazib beradigan asalarichilik guruhi, keyinchalik tayyor mahsulotni brendli savdo korxonalari tarmog'i orqali sotishni rivojlantirish shular jumlasidandir.

Shu bilan birga, asal ishlab chiqaruvchilar va davlat o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar asalarichilikning iqtisodiy samaradorligi omillari tizimida muhim ahamiyatga ega, chunki normativ-huquqiy bazaning nomukammalligi tarmoqda ishlab chiqarish va iqtisodiy natijalarning pasayishiga olib kelmoqda.

Xususan, asalarichilikni rivojlantirishni muvofiqlashtiruvchi davlat tuzilmasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining faoliyati ham asalarichilik rivojiga hali ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda, deb bo'lmaydi. Mamlakatimizda rivojlanishning hozirgi bosqichida asalarichilarni birlashtirgan, o'zining moliyaviy va ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan, asalarichilarni asbob-uskunalar, veterinariya preparatlari, naslchilik materiallari va boshqalar bilan ta'minlaydigan yagona tashkilot yo'q. Shuning uchun ham asalarichilik xo'jaliklarining har qanday turdagi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini qonun bilan tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Asalarichilikni joylashtirish samaradorligi darajasi talab, taklif va ayriboshlash, korxonalar va davlat o'rtasidagi iqtisodiy o'zaro ta'sir omillari bilan bog'liqdir. Ikkinchi guruh omillariga - mahsulotga bo'lgan talabning egiluvchanligi, uy xo'jaliklarining daromadlari, narx darajalari va narx belgilash xususiyatlarini kiritish mumkin. Bu omillar asalarichilikni mintaqaviy joylashtirish samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi guruh omillari (davlatning soliq, kredit, narx va moliyaviy siyosati) asalarichilikni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishga qaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashid A., Muhammadbek M. Regulation of the Diversification of the Use of the District Land Fund through the General Scheme. Design Engineering. – 2021. – C. 2565-2581.
2. Sultanovich, A. A., & Ugli, M. M. D. (2019). Methods of forecasting and management of land fund diversification in local areas. International Journal of Recent Technology and Engineering, 8(3), 403-411.
3. Altiev, A. S., & Mahsudov, M. D. (2019). REPRODUCTION CYCLE OF LAND. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(4), 96-102.
4. Altiev, A., & Mahsudov, M. (2020). Improvement of the regulation mechanisms of the land use diversification. International Journal of Pharmaceutical Research. ISSN, 9752366.
5. Sergeev I. V. Tashkilotlar (korxonalar) iqtisodiyoti: Darslik. Moskva: Velbi TK, Prospekt, 2006. - 560 b.
6. Kiryanov Y. N. Asalarichilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va standartlashtirish texnologiyasi: Darslik. - Moskva: Kolos, 1998. - 160 b.
7. Cherevko Y.A. Asalarichilik: Darslik. - Moskva: Kolos, 2006. - 296 b.
8. Glotova N. I. Kooperatsiya asosida aholining shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish (Oltoy o'lkasi materiallari asosida): monografiya. Barnaul: AGAU nashriyoti, 2006. -198 b.